



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TEMPORALLIK

Abduraxmanova Shahzoda Maxmudbek qizi
Xorazm Ma‘mun universiteti G‘arb tillari va adabiyoti kafedrası ingliz tili
o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur ishda ingliz va o‘zbek tillarida temporallik kategoriyasining ifodalanish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Temporallik tilshunoslikda vaqt munosabatlarini ifodalovchi muhim grammatik va semantik kategoriya bo‘lib, har ikki tilda turli vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda ingliz tilida zamon shakllari, fe‘l tizimi va yordamchi vositalar orqali beriladigan temporallik o‘zbek tilida affikslar, ravishlar hamda kontekstual birliklar orqali ifodalanishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, har ikki tildagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanib, ularning tarjima jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari til o‘rganish va tarjima amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: temporallik, zamon kategoriyasi, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil, fe‘l tizimi, grammatik kategoriya, semantika, affikslar, tarjima

Аннотация.

Данное исследование рассматривает выражение темпоральности в английском и узбекском языках посредством сравнительного анализа. Темпоральность как лингвистическая категория отражает временные отношения и выражается различными грамматическими и семантическими средствами в обоих языках. Исследование показывает, что в английском языке темпоральность передаётся с помощью временных форм, глагольных систем и вспомогательных конструкций, тогда как в узбекском языке она в основном выражается аффиксами, наречиями и контекстуальными элементами. Выявлены сходства и различия между двумя языками, а также рассмотрено их значение в процессе перевода. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию изучения языков и практики перевода.

Ключевые слова: темпоральность, категория времени, английский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, глагольная система, грамматическая категория, семантика, аффиксы, перевод.

**Annotation.**

This study examines the expression of temporality in English and Uzbek languages through a comparative analysis. Temporality, as a linguistic category, represents time relations and is expressed through various grammatical and semantic means in both languages. The research highlights how temporality in English is conveyed through tense forms, verb systems, and auxiliary constructions, while in Uzbek it is mainly expressed through affixes, adverbs, and contextual elements. The similarities and differences between the two languages are identified, and their significance in translation processes is discussed. The findings of the study contribute to a better understanding of language learning and translation practices.

Keywords: temporality, tense category, English language, Uzbek language, comparative analysis, verb system, grammatical category, semantics, affixes, translation

Kirish

Temporallik tilning nominativ va semantik aspektlaridamuhim o‘ringa ega bo‘lgan kategoriyadir. Shu boisdan ham tilshunoslik vaqt semantikasini turli nuqtai nazarlardan o‘rganib kelmoqda. Quyida ushbu masalalarga e‘tibor qaratamiz. L.N.Lyubinskayaning “Vaqt kategoriyasi va sistem tahlil” risolasi vaqtningob‘ektiv belgilari va uni sistemalilik nuqtai nazaridantadqiq etish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotchining ta‘kidlashicha, vaqtning voqelanishi rang-barang bo‘lib, uning umumiy mohiyati turli tipdagi hodisalarning ichki va tashqisistemalar sifatidagi munosabatlariga bog‘liq. Shuning uchunxususiy faqlar qancha ko‘paya borgan va ularning tadqiqotlarigancha chuqurlasha borgan sari bizning vaqt haqidagi bilimimiz ham shuncha orta boradi. Fizik hodisalarda (fizikada) vaqtharakatning tezlik belgisi, o‘lchovi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida, mikro- va makroolam tashkil etuvchilari munosabatlarida tezlik vaqti o‘z ichki xususiyatlariga ega. Biologik jarayonlarda vaqtning davriyligi, takrorlanuvchanligi, jadallik va sustlik belgilari yorqin ko‘rinishga ega. Chunki tirik organizmlarning yashashxususiyatlari tashqi muhitning shunday xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Ijtimoiy hodisalarda esa (masalan, tarixda)vaqtning sotsial belgilari, ya‘ni ish vaqti, ishlab chiqarishning jadallashtirilishi, jamiyat a‘zolarining bo‘sh vaqti kabi xususiyatlar birlamchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishda vaqt bilan bog‘liq «munosabat», «hozirgi», «o‘tgan», «kelasi», «tartib», «izchillik», «yo‘nalish» kabi belgilarning fizik, biologik, sotsiologik hodisalarning ichki strukturasi va o‘zaro munosabatlaridagi o‘ziga xosliklar haqida fikr yuritiladi. L.N.Lyubinskayaning uqtirishicha, vaqt munosabat bilan, munosabat sistema bilan o‘zviy bog‘liq bo‘lganligi uchun



temporallikning mohiyatini sistem-struktur o'rganish usuli orqaligina samarali ochish mumkin.

Tadqiqotchi vaqtning tilda in'ikos etish masalalariga ham to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, vaqtning ma'nosini ochish bu o'tmish, hozir va kelajak hodisalarining o'zaro munosabatini bilish demakdir. Shu munosabat bilan tilda o'tmish, hozir, kelajakni ifodalashning kelib chiqishi, bo'lardan qaysisining avval paydo bo'lganligi, zamon vositalarining shakllanishida makon lisoniy vositalarining ahamiyati, bu yo'nalishdagi konkretlikdan abstraktlikka borish xususiyatlari haqida fikrlar bayon qilinadi.

A.V.Bondarko o'zining "Grammatik kategoriya va kontekst" monografiyasida bir umumiy ma'noning turli sathlardagi ifoda tizimiga funktsional-semantik kategoriya sifatida qaraydi. Uning fikricha, vaqt ma'nosini ifodalovchi leksik, morfologik va sintaktik til vositalari temporal funktsional-semantik kategoriyani tashkil etadi. Tadqiqotchining ko'rsatishicha, bu kategoriya maydon xarakteriga ega. Unda yadro va periferiya mavjud. Fe'llardagi grammatik zamon temporal funktsional-semantik kategoriyaning yadrosini tashkil etadi. Buning sababi fe'lning zamon shakllari vaqt ma'nosini sof ifodalashga ixtisoslashgan, farqlovchi semantik belgilar orqali yuqori darajada (oppozitiv) uyushgan, qo'llanishi doimiy (majburiy) bo'lgan yopiq sistemadir. Periferiyani esa vaqt ifodalovchi leksik birliklar, fe'l mayllari, sintaktik konstruktsiya kabilar tashkil etadi. Yadro va periferiya birliklarining o'zlariga xoc ma'nolarini, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini o'rganish temporallikning mohiyatini ochishga yordam beradi. Ingliz tilshunosligida bu masala quyida ko'rsatilajak manbalarda o'rganilgan:

- Alverson H. Semantics and Experience. Universal Metaphors of Time in English, Mandarin Hindi, And Sesotho. The John Hopkins University Press, Baltimore and London, 1994. - 151 p.
- Ballard, J. Memories of Space Age//British Short Stories//Ed. by J. White. Penguin books, 1988. - 654 p.;
- Black M. The Structure of Metaphor. Oxford, New York, 1962. - 344 p.;
- Craig A. Connly. The Basis of Time.//Philosophy and Phenominological Research. Buffalo, 1975. - p. 82-93.;
- Fraser J.T. Time as Conflict. Basel, Stuttgart: Birkhauser, 1978. - 356 p.;
- Kucera H. Time in Language. Temporal Adverbial Constructions in Czech, Russian and English.// Kucera H., Trnka K. Michigan: Ann Arbor, 1975. -115 p.;
- Schaltenbrand G. Consciousness and Time.//Interdisciplinary Perspectives of Time. New York, 1967. - P. 632-643.;



- Shakespeare, W. The Complete Works // Ed. By Peter Alexander. London, Glasgow: Collins, 1992. - 1376 p.

O‘zbek tilining ot leksemalarida vaqt semantikasi.

Vaqt ma’noli leksemalar muayyan lug‘aviy semantik yoki leksik-grammatik (so‘z turkumi) sistemaga “vaqt” arxisemasi asosida birlashadi. Avvalo shuni aytish kerakki, “vaqt” leksemasida semema (mustaqil qo‘llana oluvchi ma’noviy butunlik) holatida bo‘lib, unda obyektiv vaqt hodisasi tafakkur va til hamkorligida leksik semantikaga aylantirilgan. Ot leksema bo‘lgan “vaqt” leksemasining semantik mundarijasida vaqtning muhim belgshari (semalari) aks etgan. Bizningcha, “vaqt” leksemasining sememasi semalarini “narsa”, “harakat”, “davomiylik”, “o‘lchanuvchan”, “galma-gallik”, “almashinuv” kabilar tashkil etadi. Demak, “vaqt” leksemasining ma’nosini “narsa harakati davomiyligidagi ulchanuvchan galma-gal almashinuv” deb ta’riflash mumkin. Odatda vaqt semantikasining muhim belgilari sifatida bir o‘tamlilik (yo‘nalishlilik), qaytarilmaslik, cheksizlik, bir jinslilik kabilarga e’tibor beriladi. Diqqat qilinsa, bu belgilar vaqt semantikasida bevosita va bilvosita ifodalanadi. Xususan, bir jinslilik “galma-gallik” o‘tovi semasida (daqiqqa, soat kabi), bir ulchamlilik, cheksizlik belgilari esa “davomiylik” (uzluksizlik) semasida aks etgan.

Ot so‘z turkumidagi temporal leksemalar vaqt ma’noli ravishlar, sifatlar, olmoshlar, fe’llar, ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalardan farqlanadi. Vaqt otlarida “payt” semasi “predmet” semasidan keyin turadi va shuning uchun ham nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Biz quyida vaqt ma’noli otlarning semantik (semik) strukturasi va leksik-semantik guruhlarini aniqlashga harakat qilamiz.

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi vaqt semantikasi ot leksemalarni tadqiq qilganimizda mazkur leksemalar vaqt ifodalash darajalarining to‘rtta ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu esa “vaqt” semasining turli sememalar semik tarkibida to‘rtta o‘rinlarda kelishi bilan belgilanadi. O‘zbek tili barcha tillar kabi bevosita vaqtni, uning ko‘rinishlari va bo‘linishlarini atovchi *vaqt, alla, fursat, on, zamon, kun, tun, soat, bahor, yoz, yakshanba, yanvar* kabi ot leksemalarga va shu bilan birga vaqtga aloqador predmet, voqea-hodisalarni nomlovchi «tushlik» (tush paytida yeyiladigan taom), “xronika” (tarixiy voqealarning vaqtiy ketma-ketlikda yozilishi), “oylik” (har oyda olinadigan ish haqi), “hamasr” (biror kimsa bilan bir asrda yashovchi) kabi ot leksemalarga ega. Bevosita vaqtni predmet sifatida nomlovchi ot leksemalarning semantik tarkibida “vaqt” semasi yetakchi semalardan bo‘lib, agar E.V.Kuznekovaning ilgari surgan semalash usuliga asoslansak, mazkur “vaqt” semasi vaqtni bevosita nomlovchi ot leksemalarda “predmet” kategorial grammatik semasidan keyingi mavqedagi leksik-



grammatik semadir (58, 21-22).

Vaqt bilan aloqador predmet, voqea-hodisalarni nomlovchi ot leksemalarda ham “vaqt” semasi sof yoki qorishiq hollarda uchraydi, lekin uning yetakchiligi ko‘zga tashlanmaydi. Mazkur lekemalarning sememasida “vaqt” semasi kuchliroq pozitsiyada joylashib, u o‘zidan umumiyroq semalarni aniqlab keladi. o‘z-o‘zidan tushuniladiki, “vaqt” semasining o‘rnini vaqt bilan aloqador predmetning umumiy tavsiflovchi semasi egallaydi (chaqaloq — predmet, inson, kichik yoshli, yangi tug‘ilgan).

Bevosita vaqtni predmet sifatida nomlovchi payt otlarini farqli semalari asosida quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Sof vaqtni mavhum predmet sifatida ifodalovchi otlar. O‘zbek tilida sof vaqtni mavhum narsa sifatida nomlovchi leksemalarni *vaqt, payt, mahal, allamahal, kez, zahot(i), lahza, zamon (zamona), davr, muddat, fursat* kabi so‘zlar tashkil etadi. Hozir keng qo‘llanayotgan vazn leksemasi ko‘p ma’noli bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida uning besh ma’nosi (sememasi) qayd etilgan. Bu so‘zning birinchi sememasi *Toshkent vaqti, mahalliy vaqt* kabi so‘z birikmalarida reallashuvchi “o‘lchov”, “hisob” ma’nolaridir. Ikkinchi semema *ish vaqti, bizning vaqtimiz* kabi birikmalarda muayyan maqsad uchun belgilangan muddat oralig‘ini ifodalashga xizmat qiladi. Uchinchi sememani *sahar vaqti, kechki vaqt* kabi kontekstlarda yuzaga chiquvchi payt semantikasi tashkil etadi. To‘rtinchi ma’no tarixiy voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan *tinchlik vaqti, urush vaqti* kabi birikmalarda oydinlashadi. Beshinchi semema esa falsafiy vaqt tushunchasiga aloqadordir. Bizningcha, vaqt leksemasining bosh ma’nosini izohlovchi lug‘atda ajratilgan beshinchi, ya’ni umumiy vaqt tushunchasini anglatuvchi semema ifodalaydi. Bosh ma’noning dastlabki umumiy semantikani ifodalashi va undan turli nom ko‘chish yo‘llari orqali hosila ma’nolarning vujudga kelishi tabiiydir. Vaqt leksemasining bosh ma’nosiga (Vaqt) lug‘atlarda to‘rtta ta’riflar berilgan. Bularning mavjudligikeng qamrovli vaqtning umuminsoniy va umumfan tushunchasi ekanligi va unga turli nuqtai nazarlardan yondashishlarning mumkinligi bilan izohlanadi. Odatda, B1 “obyektiv borliqning, materiya harakati bilan uzviy bog‘langan holda uzluksiz va izchil davom etadigan yashash formasi” (21, 80), “bir-birini almashtirib turadigan hodisalar mavjudligining izchilligini ta’minlovchi materiyaning yashash formasi (102; 129)” kabi ta’riflanadi. Bizningcha, B1 sememasini o‘ta qisqa tarzda “narsa harakati davomiyligidagi ulchanuvchan galma-gal almashinuv” deb aniqlash mumkin. B1 sememasi semalarini “narsa”, “harakat”, “davomiylik”, “galma-gallik”, “o‘lchanuvchan”, “almashinuv” kabi belgilar tashkil etadi. Bizningcha, umumiy vaqtni, uning barcha belgi-xususiyatlarini vaqt leksemasining bosh ma’nosi, umumiy vaqtning hisobini, muayyan voqea-hodisaning qancha davom etishini ikkinchi ma’nosi (*Poezd*



mahalliy vaqt bilan soat uchda jo'nadi), muayyan maqsad uchun belgilangan vaqt qismini uchunchi ma'nosi (*ish vaqti sakkiz soat davom etadi*), tabiiy hodisalar bilan belgilanuvchi vaqtni to'rtinchi ma'nosi (*Erta bahor vaqtlari dalalar ko'm-ko'k maysalarga burkana boshlaydi*), tarixiy voqealar bilan belgilanuvchi vaqtni esa beshinchi ma'nosi (*Mustaqillik vaqtida ilm olayotgan yoshlarimizga barcha imkoniyatlar yaratilgan*) ifodalaydi. Vaqt ko'p leksemasining yuqoridagi besh sememalarini B1, B2, B3, B4, B5 deb belgilab olamiz.

B2 sememasi B1 sememasidan metonimiya asosida hosil bo'lgan: B1 — davomiylik B2 — davomiylikning o'lchovi, hisoblash sistemasi. Ko'rinib turibdiki, B2 shakllanishida "o'lchov" semasi muhim ahamiyat kasb etgan. "o'lchov" semasi o'z-o'zidan boshqa o'lchov birliklari asr, yil, oy kabilarni ham talab qiladi. Demak, B2 sememasini eng muhim semalariga "davomiylik", "o'lchov", "asr", "yil", "oy", "kun" (sutka), "soat", "minut", "sekund" kabi semalarni kiritish mumkin. B2 sememasi quyidagicha ta'riflanadi: yuz beradigan voqea-hodisa va narsalarning asrlar, yillar, oylar, kunlar (sutkalar), soatlar, minutlar va sekundlar bilan o'lchanadigan davomiyliqi.

B3 sememasi B1 sememasidan sinekdoxa (butun-qism) usulida hosil bo'lgan. Bunda B1 sememasining cheksiz davomiylikni ifodalashini nazarda tutsak, B3 esa ushbu davomiylikdagi muayyan maqsad uchun belgilangan ma'lum vaqtni anglatadi. B3 sememasining semalarini quyidagta ajratish mumkin: "maqsad uchun", "belgilangan", "muddat oralig'i". Sememasi: "soat, kun, oy, yil va shu kabilarning uzluksiz va izchil almashuvda biror maqsad uchun belgilangan muddat oralig'i". Sememaning ta'rifidan ko'rinadiki, "belgilangan", "muddat oralig'i" B3 sememasi uchun ajratuvchi, vaqtning xususiyatlarini bildiruvchi "uzluksizlik, davomiylik" kabi semalar esa birlashtiruvchi semalardir. B1dagi "cheksiz" semasi B3da "cheksiz emas" semasiga aylangan. B3 sememasi reallashuviga misol qilib quyidagi so'z birikmalarini keltirish mumkin: *o'qigan vaqtimiz, yoshlik vaqtimiz* kabi.

B4 sememasi B1dan sinekdoxa (butun-qism) usulida hosil bo'lgan. B4 sememasi B1 ifodalaydigan cheksiz davomiylikdagi tabiiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan belgili muayyan paytni anglatadi: *kechki vaqt, yoz vaqti, tong vaqti* kabi. B4 sememasining semik mundarijasini quyidagta kursatish mumkin: "belgilangan", "tabiiy hodisalar", "davomiylik", "cheksiz emas". Ta'rif: tabiiy hodisalar bilan belgilangan muayyan payt, davomiylik.

B5 sememasi ham B1 sememasidan sinekdoxa (butun-qism) usuli yordamida shakllangan. B5 sememasi B1 sememasi bildirgan cheksiz davomiylikdagi tarixiy hodisalar bilan belgilangan ma'lum vaqt qismini anglatadi. B5 sememasini quyidagi semalarga ajratish mumkin: "tarixiy hodisa", "belgilangan", "davomiylik", "cheksiz



emas”. B5 sememasini quyidagicha ta’riflash mumkin: “tarixiy hodisalar bshan belgilanuvchi muayyan vaqt davomiyligi”. Bu semema *yerislohoti vaqti, xonlik vaqti* kabi soʻz birikmalarini hosil qiladi.

XULOSA

Vaqt obyektiv olam mavjudligining shakllaridan biridir. Temporallikning harakat bilan uzviy bogʻliqligi, harakat-holat turlarida rang-barangligi, nisbiyligi, abstraktligi kabi missiy sezilmas belgilari va, umuman, vaqtning ontologik tabiati haqida qadimdan tortib hozirga qadar donishmandlar, filosoflar hamda xususiy qasharning tadqiqotchilari tomonidan har xil qarashlar va ta’limotlar ilgari surildi.

Vaqtning narsa harakati davomiyligidagi oʻlchanuvchan galma-gal almashinuv deb ta’riflash mumkin.

Vaqt oʻzgaruvchanlik, bir yoʻqalishlilik, bir jinslilik, davomiylik, uzluksizlik, qaytmaslik, cheksizlik, uzluksizlik, galma-gallik, harakat turlariga xoslanish, nisbiy uzayish va qisqarish, mavhumlik, mustaqil hodisalik (substansionallik), munosabatdorlik (relyativlik), hozirlik, oʻtmishlik, kelgusilik, birvaqtlilik, ketma-ketlik, oʻrinsizlik (bemavridlik), bedudalik, choʻzilganlik, oʻtmaslik, ertalik, kechlik, ozlik, koʻplik, kattalik, kichiklik, himmatlilik kabi obyektiv va sub’ektiv xususiyatlarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Абдуллажонова Ж. А. Переносное употребление временных форм глагола в современном ўзбекском языке. Автореф. дис. . . канд. филол. наук. — Ташкент, 1973. -24 с.
2. Абдуллаева Д. А. Семантик-синтактик валентлик ва ўзга гапли курилмалар. Филол. фанлари номзоди дис. . . автореф. Самарқанд, 2002. -19 б.
3. Абдупатпоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. Филол. фанлари номзоди дис. . . автореф. —Тошкент, 1997. -22 б.
4. Абдурахмонов Г. Теория текста//Советская тюркология. 1981, №1. — С. 93-96.
5. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап курилишида тулдирувчи ва қол ([WРm] валентлиги аспектида). Филол. фанлари номзоди дис. . . автореф. — Тошкент, 1997. -22 б.
6. Апресян Ю. Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. -М. : Просвещение, 1966. -302 с.
7. Ардентьев Б. П. Выражение времени в русском языке. Кишнев, 1975. - 48 с.
8. Аспекты общей и частной лингвистической теории текста. М. : Наука, 1982. -192 с.
9. Ахтамова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи к ақчи формалар//Ўзбек тили ва адабиёти. 1988, №1 —Б. 47-51.
10. Базен Л. Концепция возраста у древних тюркских народов